

Turkiya Prezidenti rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an 29-30-mart kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Oliy martabali mehmon tashrif doirasida oliy darajadagi O'zbekiston-Turkiya strategik sheriklik kengashining ikkinchi yig'ilishida ishtirok etadi.

O'zbekiston va Turkiya yetakchilari o'tkazadigan muzokaralarning kun tartibidan ikki tomonlama do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari o'rin olgan.

Asosiy e'tibor savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar, sanoat, logistika, turizm va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida qo'shma kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini amalga oshirishga qaratiladi.

Xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlari yuzasidan fikr almashiladi.

Sammit yakunida Qo'shma bayonot va qator ikki tomonlama hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Manba